


Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Yer to‘g‘risidagi fanlar” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Janubiy O‘zbekistonning yer osti arxeologik obyektlarining fazoviy tuzilishini zamonaviy noinvaziv geofizik usullar yordamida o‘rganish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: Janubiy O‘zbekistonning arxeologik obyektlarining fazoviy tuzilishi aniqlanadi. Noinvaziv geofizik usullar yordamida ularning shakli, o‘lchamlari, joylashuvi va o‘zaro bog‘langan qismlari aniqlanadi. Yig‘ilgan ma‘lumotlar asosida obyektlarning fazoviy tuzilishi aniqlashtiriladi hamda keyingi arxeologik tadqiqotlar va qazishmalarni rejalashtirish uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. Geofizik va arxeologik yondashuvlarning integratsiyasi dala tadqiqotlarining metodik asosini kengaytiradi va arxeologik obyektlarni o‘rganish amaliyotiga yangi ilmiy yondashuvlarni tatbiq etishga imkon yaratadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar eksperimental tadqiqotlar va tahlillar Ilg‘or texnologiyalar markazi laboratoriyalarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.